

AL-MUTARRIZIYNING “RISALATUN FI AN-NAHV” ASARIDA KO‘MAKCHI SO‘ZLARNING SEMANTIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Rustamova Muxlisaxon Baxodir qizi,

Alfraganus universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (Arab tili)

yo‘nalishi 1-kurs 25.06-guruh talabsi

muxlisaxonrustamova.665@gmail.com

Raxmonov Azimjon Komilovich,

Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti

Tillarni o‘qitish markazi rahbari

raxmonoviazimjon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorazmlik yirik tilshunos Nosir Mutarriziy tomonidan yozilgan “Risalatun fi an-nahv” asarida ko‘makchi so‘zlar sifatida qaraluvchi harf al-jarrlarning grammatik tabiati chuqur ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida “من” (dan), “إلى” (ga), “عن” (haqida, dan), “ك” (kabi) singari yordamchi birliklarning semantik ko‘lami, ularning ma‘no nozikliklari hamda gap tuzilishidagi sintaktik funksiyalari tizimli ravishda o‘rganildi. Shu bilan birga, ushbu harf al-jarrlarning qo‘llanish xususiyatlari klassik arab nahv an‘analaridagi yirik grammatik maktablar vakillari — Basra va Kufa maktabi olimlarining qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, Mutarriziy yondashuvining o‘ziga xos ilmiy pozitsiyasi aniqlashtirildi. Natijada, uning grammatik konsepsiyasi arab tilshunosligi taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri sifatida baholanib, harf al-jarrlarning nafaqat sintaktik bog‘lovchi vosita, balki ma‘no shakllantiruvchi murakkab lingvistik birlik ekanligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: ko‘makchi so‘zlar, harf al-jarr, nahv ilmi, sintaksis, semantika, arab grammatikasi, al-Mutarriziy, “Risalatun fi an-nahv”.

Аннотация. В данной статье проводится глубокий научный анализ грамматической природы предлогов (ḥurūf al-jarr), рассматриваемых как служебные слова, в произведении выдающегося хорезмского лингвиста Насира аль-Мутарризи «Risalatun fi an-nahv». В ходе исследования системно изучены семантический диапазон вспомогательных единиц, таких как «□□» (из, от), «□□□» (к, до), «□□» (о, от), «□□» (как, подобно), их смысловые оттенки и синтаксические функции в структуре предложения. Наряду с этим особенности употребления данных предлогов были сопоставлены с взглядами представителей крупнейших грамматических школ классической арабской традиции — Басрийской и Куфийской школ, что позволило выявить специфику научного подхода аль-Мутарризи. В результате установлено, что его грамматическая концепция представляет собой важный этап в развитии арабского языкознания, а предлоги (ḥurūf al-jarr) выступают не только как средства синтаксической связи, но и как сложные лингвистические единицы, участвующие в формировании значения.

Ключевые слова: служебные слова, ḥurūf al-jarr (предлоги), наука nahv, синтаксис, семантика, арабская грамматика, аль-Мутарризи, «Risalatun fi an-nahv».

Abstract. This article provides an in-depth scholarly analysis of the grammatical nature of harf al-jarr (ko‘makchi so‘zlar), regarded as auxiliary words, in the work “Risalatun fi an-nahv” by the prominent Khwarazmian linguist Nasir Mutarrizi. The study systematically examines the semantic scope, nuanced meanings, and syntactic functions of auxiliary units such as “من” (dan), “إلى” (ga), “عن” (haqida, dan), and “ك” (kabi) within sentence structure. Furthermore, the usage characteristics of these prepositions are comparatively analyzed in relation to the views of major scholars of classical Arabic grammar schools, namely the Basra and Kufa traditions, in order to determine the distinctive scholarly position of Mutarrizi’s approach. As a result, his grammatical conception is evaluated as an important stage in the development of Arabic linguistics, demonstrating that harf al-jarr are not merely syntactic linking elements but complex linguistic units that actively contribute to meaning construction.

Keywords: ko'makchi so'zlar, harf al-jarr, nahv ilmi, syntax, semantics, Arabic grammar, al-Mutarriziy, "Risalatun fi an-nahv".

Kirish. Arab tilshunosligida yordamchi so'zlar, ya'ni harf al-jarlar grammatik tizimning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Harf al-jarlar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmasa-da, gapdagi so'zlar o'rtasidagi grammatik munosabatlarni ifodalash, sintaktik bog'lanishni yuzaga keltirish hamda ma'no nozikliklarini ochib berishda muhim vazifani bajaradi. Ushbu birliklar otlarni qaratqich (majrur) holatiga keltirib, gapning semantik yaxlitligini ta'minlaydi. Shu sababli klassik arab grammatikasi tarixida harf al-jarlar masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralgan.

Arab nahv ilmining dastlabki shakllanish davridan boshlab yordamchi so'zlar grammatik tahlilning markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa,, kabi klassik tilshunoslar o'z asarlarida harf al-jarlarining sintaktik va semantik xususiyatlarini keng yoritganlar. Ularning ilmiy qarashlari keyingi asrlarda yashab ijod qilgan nahv olimlari uchun muhim metodologik asos vazifasini bajargan.

XII asr arab tilshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin egallagan xorazmlik buyuk olim ham nahv ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning "Risalatun fi an-nahv" asari arab grammatikasining muhim manbalaridan biri bo'lib, unda grammatik qoidalar sodda, izchil va pedagogik usulda bayon etilgan. Asarda yordamchi so'zlarning qo'llanishi, ularning ma'no xususiyatlari hamda gap tarkibidagi sintaktik vazifalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Al-Mutarriziy o'z asarida harf al-jarlarini faqat grammatik vosita sifatida emas, balki nutq mazmunini shakllantiruvchi muhim semantik birlik sifatida ham talqin qiladi. Ayniqsa, "min" (من), "ila" (إلى), "an" (عن), "kaf" (ك) kabi yordamchi so'zlarning turli kontekstlarda qo'llanishi va ma'no o'zgarishlari muallif tomonidan izchil sharhlanadi. Bu esa olimning semantik tahlilga ham katta ahamiyat berganligini ko'rsatadi. Mazkur mavzuning dolzarbliigi shundaki, arab tilidagi yordamchi so'zlarning grammatik va semantik tabiati hozirgi zamonaviy tilshunoslikda ham muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, klassik manbalardagi grammatik qarashlarni o'rganish arab tilshunosligi tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan al-Mutarriziyning "Risalatun fi an-nahv" asaridagi harf al-jarlariga oid qarashlarni tahlil qilish arab nahv ilmining tarixiy taraqqiyotini yoritishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi al-Mutarriziyning "Risalatun fi an-nahv" asarida qo'llangan harf al-jarlarining semantik va sintaktik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida yordamchi so'zlarning grammatik vazifalari, ma'no nozikliklari hamda klassik arab grammatikasi tizimidagi o'rni qiyosiy-tahliliy metod asosida o'rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Nosir

Mutarriziyning “Risalatun fi an-nahv” asari tanlandi. Ushbu manba asosida al-Mutarriziyning harf al-jarrlarga oid grammatik qarashlari, ularning gap tarkibidagi sintaktik vazifalari hamda semantik xususiyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot davomida yordamchi so‘zlarning qo‘llanishi matn asosida tahlil qilinib, ularning turli kontekstlarda ifodalagan ma‘nolari aniqlandi. Ayniqsa, “min” (من), “ila” (إلى), “an” (عن), “kaf” (ك) kabi harf al-jarrlarning grammatik vazifalari va ma‘no nozikliklari misollar orqali izohlandi.

Maqolada qiyosiy-tahliliy metod ham muhim o‘rin egallaydi. Shu asosda al-Mutarriziyning grammatik qarashlari klassik arab nahv maktabining yirik vakillari — hamda qarashlari bilan qiyoslandi. Bu orqali al-Mutarriziyning nahv ilmiga qo‘shgan ilmiy hissasi, uning o‘ziga xos metodologik yondashuvi hamda grammatik qoidalarni bayon etish uslubi aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda semantik tahlil metodidan foydalanilib, harf al-jarrlarning turli nutqiy vaziyatlarda hosil qiladigan ma‘no o‘zgarishlari o‘rganildi. Har bir yordamchi so‘zning grammatik funksiyasi bilan bir qatorda uning uslubiy va semantik imkoniyatlari ham tahlil qilindi. Bu esa al-Mutarriziyning yordamchi so‘zlarni faqat grammatik birlik sifatida emas, balki nutq mazmunini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida talqin qilganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot jarayonida klassik arab grammatikasi manbalari, zamonaviy arab tilshunosligi tadqiqotlari hamda nahv ilmi bo‘yicha ilmiy adabiyotlardan kompleks tarzda foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Arab tilida harf al-jarrlar ot bilan birikib, uni majrur holatga keltiruvchi yordamchi birliklar hisoblanadi. O‘zbek tilidagi ko‘makchilarga ma‘lum darajada yaqin bo‘lgan ushbu birliklar gapning sintaktik tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Harf al-jarrlar gap tarkibidagi so‘zlar o‘rtasidagi grammatik munosabatlarni ifodalab, harakatning yo‘nalishi, sababi, vositasi yoki o‘xshatish kabi ma‘nolarni yuzaga chiqaradi.

Arab nahv ilmi tarixida harf al-jarrlar grammatik omillarning muhim qismi sifatida talqin qilingan. Klassik grammatiklar ularni ismning oxirgi harakatiga ta’sir qiluvchi vositalardan biri deb hisoblaganlar. Shu sababli harf al-jarrlar nafaqat sintaktik, balki semantik jihatdan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘z asarida harf al-jarrlarni faqat grammatik vosita sifatida emas, balki ma‘no ifodalovchi birlik sifatida ham tahlil qiladi. Muallif har bir yordamchi so‘zning qo‘llanish holati va kontekstga qarab turlicha ma‘no kasb etishini alohida ta’kidlaydi. Bu esa uning nahv ilmidagi nazariy qarashlari chuqur va tizimli ekanligini ko‘rsatadi.

“Min” (من) yordamchi so‘zi arab tilida eng ko‘p qo‘llanadigan harf al-jarrlardan biri hisoblanadi. Ushbu birlik turli nutqiy vaziyatlarda bir necha grammatik va semantik vazifalarni bajaradi. Al-Mutarriziy ushbu yordamchi so‘zning ma‘no qirralarini izchil sharhlab, uning kontekstga qarab turli mazmun kasb etishini ko‘rsatadi.

1. Boshlanish nuqtasini bildirish:

“Min” yordamchi so‘zi harakatning boshlanish nuqtasini ifodalash uchun ishlatiladi.

خرجت من البيت “Men uydan chiqdim.”

Mazkur gapda “من ” (min) harakatning qayerdan boshlanganligini bildirib turibdi. Bu holat arab grammatikasida “ibtido al-g‘oya”, ya’ni harakatning boshlanish nuqtasi deb izohlanadi.

سافرث من طشقند إلى سمرقند “Men Toshkentdan Samarqandga safar qildim.”

Bu gapda ham “من” safarning boshlanish manzilini anglatgan.

2. Qism ma’nosini ifodalash:

“Min” ayrim hollarda predmetning bir qismini yoki bo‘lagini anglatadi.

أخذت من المال “Pulning bir qismini oldim.”

Bu yerda “min” umumiy narsaning ma’lum qismini ifodalab kelgan. Arab tilshunosligida bu holat “tab’iz”, ya’ni qism ma’nosi deb yuritiladi.

شربت من الماء “Men suvdan ichdim.”

Mazkur gapda barcha suv emas, balki uning bir qismi nazarda tutilmoqda.

3. Sabab ma’nosini anglatish.

Ba’zi holatlarda “من” yordamchi so‘zi sabab yoki omil ma’nosida ham qo‘llanadi.

مات من المرض “U kasallik sababli vafot etdi.”

Bu gapda “min” voqeaning sababini bildirib kelgan. Muallif bunday qo‘llanishlarda yordamchi so‘zning semantik vazifasi kuchayishini ta’kidlaydi.

4. Ta’kidlash vazifasida kelishi:

“من” ayrim gaplarda ma’noni kuchaytirish yoki ta’kidlash uchun ham ishlatiladi.

ما جاءنا من أحد “Oldimizga hech kim kelmadi.”

Mazkur gapda “min” inkorni kuchaytirish vazifasini bajargan. Bu usul Qur’oni karim va klassik arab adabiyotida keng uchraydi. Al-Mutarriziy “min” yordamchi so‘zining turli ma’nolarini misollar orqali sharhlar ekan, uning grammatik vazifasi bilan bir qatorda semantik imkoniyatlariga ham katta e’tibor beradi. Bu esa olimning yordamchi so‘zlarni chuqur lingvistik birlik sifatida o‘rganganligini ko‘rsatadi.

“عن” (‘an) yordamchi so‘zi arab tilida eng faol qo‘llanadigan harf al-jarrlardan biri hisoblanadi. Ushbu birlik asosan uzoqlashish, chetlashish, biror narsa haqida ma’lumot berish yoki vositali bog‘lanishni ifodalash vazifasini bajaradi. Arab grammatikasida “عن” yordamchi so‘zining asosiy ma’nosi “mujovaza”, ya’ni bir narsadan chetlashish yoki uzoqlashish ma’nosi bilan izohlanadi.

Ushbu yordamchi birlikning grammatik va semantik xususiyatlarini batafsil sharhlab, uning turli nutqiy vaziyatlardagi vazifalarini ko‘rsatib beradi.

1. Biror narsa haqida ma’lumot berish:

“عن” yordamchi so‘zi ko‘pincha biror mavzu yoki predmet haqida gap ketayotganini bildiradi.

سألته عن العلم “Men undan ilm haqida so‘radim.”

Mazkur gapda “عن” yordamchi so‘zi predmet va ma’lumot o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalagan. Bu yerda so‘rash harakati “ilm” mavzusiga qaratilganligi anglashiladi.

تحدّثَ المعلمُ عن الأدب “O‘qituvchi adabiyot haqida gapirdi.”

Ushbu misolda ham “عن” ma’lum mavzu haqida so‘z yuritilayotganini bildiradi.

2. Uzoqlashish yoki chetlashish ma’nosi:

“عن” yordamchi so‘zi ayrim holatlarda biror narsadan uzoqlashish yoki chekinish ma’nosini ham ifodalaydi.

ابتعدَ عن الطريق “U yo‘ldan chetlashdi.”

Bu gapda harakatning ma’lum obyekt — yo‘ldan uzoqlashishi ifodalangan.

أعرضَ عن الخطأ “U xatodan yuz o‘girdi.”

Bu yerda “عن” ma’naviy chekinish ma’nosini yuzaga chiqargan.

3. Sabab yoki vositali bog‘lanish ma’nosi

Ba’zi nutqiy vaziyatlarda “ان” yordamchi so‘zi sabab yoki vositali bog‘lanishni ham anglatadi.

رضيتُ عن الطالب “Men talabadan mamnun bo‘ldim.”

Mazkur gapda “ان” munosabat va hissiy bog‘lanishni ifodalab kelgan.

Al-Mutarriziy “ان” yordamchi so‘zining sintaktik vazifalarini izohlashda ko‘plab misollar keltirib, grammatik qoidalarni amaliy tarzda tushuntiradi. Bu esa asarning pedagogik jihatdan ham muhim manba ekanligini ko‘rsatadi.

“ك” (ka) yordamchi so‘zi arab tilida o‘xshatish ma’nosini ifodalovchi muhim grammatik birliklardan biri hisoblanadi. Ushbu yordamchi so‘z ikki predmet yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikni ko‘rsatadi hamda arab balog‘atida muhim uslubiy vosita sifatida keng qo‘llanadi.

Arab adabiyotida “ك” yordamchi so‘zi tashbeh san’atining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, nutqning badiiy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

كالبدر “Oy kabi.”

Bu birikmada inson yoki predmet o‘yning go‘zalligi va yorqinligiga o‘xshatilmoqda.

هو كالبحر في العلم “U ilmda dengiz kabi.”

Mazkur gapda insonning ilmiy salohiyati dengizning kengligiga qiyoslangan. Bu esa nutqning obrazlilikini kuchaytiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, asarida yordamchi so‘zlar, xususan harf al-jarlar grammatik, semantik va sintaktik jihatdan chuqur va izchil tahlil qilingan. Ushbu birliklarni nafaqat grammatik bog‘lovchi vosita sifatida, balki nutq mazmunini shakllantiruvchi muhim semantik element sifatida ham yoritgan.

Asarda “min” (من), “an” (عن), “kaf” (ك) kabi yordamchi so‘zlarning turli kontekstlardagi ma’no qirralari batafsil izohlangan. Xususan, “min” yordamchi so‘zi harakatning boshlanish nuqtasi, qism ma’nosi hamda sababiy bog‘lanishlarni ifodalashda keng qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Bu esa uning semantik imkoniyatlarining kengligini ko‘rsatadi. “عن” yordamchi so‘zi esa asarda asosan chetlashish, mavzu haqida axborot

berish va vositali bog‘lanishni ifodalovchi sintaktik vosita sifatida talqin qilingan. “Kaf” (ك) esa o‘xshatish va badiiy tasvirni kuchaytiruvchi uslubiy vosita sifatida tahlil etilib, uning arab balog‘atidagi o‘rni alohida ta’kidlangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, al-Mutarriziy yordamchi so‘zlarni faqat grammatik kategoriyalar sifatida emas, balki semantik yuklama tashuvchi, nutq mazmunini shakllantiruvchi muhim lingvistik birliklar sifatida o‘rgangan. Bu yondashuv uning grammatik qarashlarini klassik nahv an‘analaridan farqlab, pedagogik va tizimli yondashuv bilan boyitganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Risalatun fi an-Nahv” asarida keltirilgan misollar va izohlar yordamchi so‘zlarning amaliy qo‘llanishini yoritib berishi bilan ajralib turadi. Bu holat asarning nafaqat nazariy, balki amaliy lingvistik manba sifatidagi ahamiyatini ham oshiradi.

Umuman olganda, al-Mutarriziyning ushbu asari arab tilshunosligi tarixida muhim o‘rin tutadi hamda zamonaviy tilshunoslik uchun ham dolzarb ilmiy manba hisoblanadi. Unda “min”, “an”, “kaf” kabi yordamchi so‘zlarning chuqur tahlili arab nahv ilmining semantik va sintaktik yo‘nalishlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur asar klassik arab grammatikasi va uning rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Al-Mutarriziy, N., & Al-Fath, A. (1979). Al-Mugrib Fi Tartib Al-Mu'rib.
2. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
3. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
4. Жўраева, М. (2022). «Ал-фавоиду-з-зиёиййа» ва «Кофия» асарларида феъл туркумининг ёритилиш принциплари. *Востоковедение*, 14(2), 58-65.
5. Жураева, М. А. (2013). Некоторые особенности склонения имен в грамматическом комментарии Абдурахмана Джами «Шарх мулла». *Вестник Челябинского государственного университета*, (23 (314)), 121-125.
6. Fatilloyev, M. (2025). “MU’JAMU-L-UDABO” DA MOVAROUNNAHR OLIMLARI HAQIDA MA’LUMOT. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 645-654.